



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SOG'LOM PSIXOLOGIK MUHIT YARATISH OMILLARI

Abdixalimova Elzara Nabijon qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Anotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida sog'lom psixologik muhit yaratishning ahamiyati, unga ta'sir etuvchi omillar hamda o'quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, sinfdagi ijobiy munosabatlar, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi pedagogik hamkorlik, ota-onalar bilan samarali muloqot hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning psixologik muhitni shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Sog'lom psixologik muhitning o'quvchilarning bilim olish faolligi, ruhiy barqarorligi va ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta'siri haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Boshlang'ich ta'lim, psixologik muhit, pedagogik hamkorlik, o'quvchi shaxsi, ta'lim sifati, ijobiy munosabat, motivatsiya, pedagogik texnologiyalar, ruhiy barqarorlik, tarbiya.*

Annotation: *This article discusses the importance of creating a healthy psychological environment in primary education, the factors influencing it, and its role in the comprehensive development of students' personalities. It also analyzes the significance of positive relationships in the classroom, pedagogical cooperation between teachers and students, effective communication with parents, and modern pedagogical approaches in shaping a psychological environment. The article highlights the positive impact of a healthy psychological environment on students' learning activity, emotional stability, and social adaptation.*

Keywords: *Primary education, psychological environment, pedagogical cooperation, student personality, quality of education, positive relationship, motivation, pedagogical technologies, emotional stability, upbringing.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается значение создания здоровой психологической среды в начальном образовании, факторы, влияющие на неё, а также её роль в всестороннем развитии личности учащегося. Также анализируется значение положительных взаимоотношений в классе, педагогического сотрудничества между учителем и учеником, эффективного общения с родителями и современных педагогических подходов в формировании психологической среды. Освещается положительное влияние здоровой психологической среды на учебную активность, эмоциональную устойчивость и социальную адаптацию учащихся.*

Ключевые слова: *начальное образование, психологическая среда, педагогическое сотрудничество, личность учащегося, качество образования, положительные*





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

отношения, мотивация, педагогические технологии, эмоциональная устойчивость, воспитание.

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat bilim olishi, balki ularning ruhiy jihatdan sog'lom, erkin fikrlovchi va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanishiga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi bolaning keyingi hayoti va ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatlari uchun muhim poydevor vazifasini bajaradi. Shu sababli boshlang'ich sinflarda sog'lom psixologik muhit yaratish dolzarb pedagogik masalalardan biri hisoblanadi. Sog'lom psixologik muhit o'quvchilarning o'zini erkin his qilishi, darslarga qiziqishi, bilim olishga intilishi va sinf jamoasida faol bo'lishiga yordam beradi. Bunday muhit mavjud bo'lgan ta'lim jarayonida o'quvchilar o'z fikrini bemalol ifoda etadi, tengdoshlari bilan ijobiy munosabat o'rnatadi va o'qituvchiga nisbatan ishonch hissi shakllanadi. Psixologik muhitning salbiy bo'lishi esa o'quvchilarda qo'rquv, tortinchoqlik, darslarga qiziqmaslik va ruhiy zo'riqishni keltirib chiqarishi mumkin. Boshlang'ich ta'limda sog'lom psixologik muhit yaratish ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida o'qituvchining pedagogik mahorati, sinfdagi o'zaro munosabatlar, oilaviy tarbiya, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va individual yondashuv muhim o'rin egallaydi.

Boshlang'ich sinfda o'quvchilar hali yosh va tajribasiz bo'lgani uchun, o'qituvchining mehribonligi, sabr-toqati va tushunishi katta ahamiyatga ega. O'qituvchi o'zining ijtimoiy-pedagogik munosabatlari orqali bolalarga nafaqat bilim beradi, balki ularni ruhiy-emotsional jihatdan qo'llab-quvvatlaydi. Bu munosabatlarda ishonch, hurmat va do'stona muhit yaratilishi kerak, chunki shu tarzda o'quvchilar o'zlarini erkin va xavfsiz his qiladilar. Shuningdek, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi samarali muloqot ularning ijtimoiy faolligini oshiradi, bolalarning o'z fikrini erkin ifoda etishiga yordam beradi, shuningdek, ular orasida hamkorlik va jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa o'quv jarayonining sifatini yanada oshiradi.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilim, ko'nikma va malakalarini mash-g'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlardan to'g'ri, aniq va o'rinli foydalanish, ko'nikma va malakalarni hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxon-likni oshirish, milliy





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy va nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi.

Tahlil va natijalar

Ijtimoiy-pedagogik munosabatlar mohiyati Ijtimoiy-pedagogik munosabatlar – bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida shakllanadigan doimiy, ongli va mazmunli muloqot shakli bo'lib, ular o'zaro hurmat, ishonch, hamkorlik va pedagogik yetakchilikka asoslanadi. Bu munosabatlar nafaqat o'qituvchining didaktik faoliyatiga, balki o'quvchining ruhiy holatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Psixologlar ta'kidlashicha, o'quvchining o'zini baholashi ko'p jihatdan o'qituvchi bilan bo'lgan munosabatga bog'liq bo'ladi. Munosabatlar samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar.

Ijtimoiy-pedagogik munosabatlar samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillar quyidagilardir:


- O'qituvchining shaxsiy fazilatlarini: mehribonlik, odillik, sabr-toqat, axloqiy yetuklik;
- Individual yondashuv: o'quvchining yoshi, psixotipi, o'quv qobiliyatlari va oilaviy muhitini inobatga olish;
- Samarali kommunikatsiya: faol tinglash, emotsional qo'llab-quvvatlash, ijobiy fikr bildirish madaniyati;
- Rag'batlantirish va baholash: maqtov, kichik yutuqlarni qadrlash orqali o'quvchining o'ziga ishonchini oshirish.

Sog'lom ijtimoiy-pedagogik muhitni shakllantirish yo'llari

Boshlang'ich sinfda sog'lom muhit yaratish uchun o'qituvchi quyidagi ishlarni amalga oshirishi lozim:

- O'quvchilarga teng huquqli shaxs sifatida yondashish;
- Darslarda interfaol metodlardan foydalanish: “aqliy hujum”, “rolli o'yinlar”, “klaster” texnikalari;
- ota-onalar bilan doimiy aloqani yo'lga qo'yish;
- Tarbiyaviy tadbirlar orqali sinfda hamjihatlikni mustahkamlash. zamonaviy yondashuvlar zamonaviy boshlang'ich ta'lim jarayonida quyidagi yondashuvlar ijtimoiy-pedagogik munosabatlarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi:
- Inkluziv ta'lim – barcha o'quvchilarga teng sharoit yaratish;
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (akt) – bolalar bilan raqamli aloqa vositalari orqali ham ishlash;
- Raqamli baholash va portfoliolar – o'quvchining yutuqlarini individual tarzda kuzatish.

Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborot texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan boshlang'ich sinf





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

o'qituvchilari va o'quvchilar o'rtasidagi ijtimoiy- pedagogik munosabatlarni shakllantirishda zamonaviy raqamli vositalar orqali beriladigan ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatga molik videolavhalardan, videofilmlardan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Sog'lom psixologik muhit yaratishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni ham katta. Interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, didaktik o'yinlar va innovatsion yondashuvlar o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi. Ayniqsa, rag'batlantirish metodlaridan foydalanish bolalarda o'ziga ishonch hissini kuchaytiradi. O'qituvchi o'quvchilarning kichik yutuqlarini ham e'tirof etib borishi kerak. Bu esa bolaning motivatsiyasini oshirib, uning darslarga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi.

Boshlang'ich ta'limda individual yondashuv ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Har bir bolaning qobiliyati, xarakteri va psixologik holati turlicha bo'ladi. Ayrim o'quvchilar faol va tez o'zlashtiruvchi bo'lsa, boshqalari tortinchoq yoki sustroq bo'lishi mumkin. O'qituvchi har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olib ishlashi lozim. Individual yondashuv bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va uning shaxs sifatida rivojlanishiga yordam beradi. Shuningdek, sinf xonasining estetik jihatdan qulay tashkil etilishi ham psixologik muhitga ta'sir ko'rsatadi. Yorug', ozoda va qulay sinf xonasi o'quvchilarning kayfiyati va faolligini oshiradi. Turli ko'rgazmali qurollar, rang-barang didaktik materiallar va bolalar ijodiy ishlari bilan bezatilgan muhit bolalarda qiziqish uyg'otadi.

Boshlang'ich ta'limda psixologik xavfsizlikni ta'minlash ham muhimdir. O'quvchi maktabda o'zini xavfsiz his qilishi, fikrini erkin ayta olishi va xato qilishdan qo'rqmasligi kerak. O'qituvchi bolalarning fikrini hurmat qilishi, ularni tinglashi va qo'llab-quvvatlashi lozim. Ayniqsa, dars davomida tanqid qilish o'rniga tushuntirish va yo'naltirish usullaridan foydalanish samarali hisoblanadi. Bugungi globallashuv davrida bolalarning ruhiy holatiga internet va ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri ham ortib bormoqda. Shu sababli o'qituvchi va ota-onalar bolalarning media madaniyatini shakllantirishga ham e'tibor qaratishi zarur. To'g'ri axborotni tanlash, zararli axborotlardan himoyalaniish va vaqtni to'g'ri taqsimlash bo'yicha tushunchalar berilishi kerak. Umuman olganda, sog'lom psixologik muhit boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Bunday muhitda ta'lim olgan o'quvchilar erkin fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan va jamiyatda faol ishtirok etadigan shaxs sifatida shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda sog'lom psixologik muhit yaratish o'quvchilarning barkamol shaxs bo'lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Sog'lom psixologik muhit bolaning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, uning ruhiy barqarorligini ta'minlaydi va ijtimoiy moslashuvini kuchaytiradi. Bunday muhitni shakllantirishda o'qituvchining pedagogik mahorati, ota-onalar bilan hamkorlik, sinfdagi ijobiy munosabatlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar muhim o'rin tutadi.

Shu sababli ta'lim jarayonida har bir o'quvchining ruhiy holatini inobatga olish, ularga individual yondashish va qulay ta'lim muhitini yaratish zarur. Zero, sog'lom psixologik





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

muhit mavjud bo'lgan ta'lim tizimida kelajak avlodning ma'naviy va intellektual salohiyati yuksaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.* – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. To'xtayeva M. *Pedagogik psixologiya asoslari.* – Toshkent, 2019.
3. Nishonova Z., Alimuhamedov S. *Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi.* – Toshkent, 2017.
4. Hasanboyeva O. *Pedagogika nazariyasi va tarixi.* – Toshkent, 2020.
5. Davletshin M.G. *Umumiy psixologiya.* – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
6. Xoliqov A. *Pedagogik mahorat.* – Toshkent, 2021.
7. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

